QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.160

ZAMON DEYKSISINING ELEKTRON MULOQOTDA IFODALANISHI

Xoldorova Shohista Aazamjon qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
xoldorovashohista5@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada elektron muloqot jarayonida zamon deyksisining ifodalanishi va uning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Elektron kommunikatsiyaning asinxron tabiati natijasida zamon deyktik birliklarining an’anaviy nutqdagi interpretatsiyasidan farqli jihatlari ochib beriladi. Elektron muloqotda zamon deyksisining ko‘chma deyktik markazga ega bo‘lishi, noaniq (diffuz) zamon deyksisi hamda platforma tomonidan avtomatik shakllantiriladigan vaqt ko‘rsatkichlari asosida yuzaga keluvchi texnologik zamon deyksisi kabi ko‘rinishlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari elektron muloqotda zamon deyksisi ko‘p o‘lchovli, o‘zgaruvchan va kontekstga bog‘liq pragmatik hodisa sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: elektron muloqot, zamon deyksisi, deyktik birlik, deyktik markaz, pragmatik xususiyat, asinxron kommunikatsiya, noaniq zamon deyksisi, diffuz deyksis, texnologik zamon deyksisi, deyktik kechikish, vaqt interpretatsiyasi, Telegram.

ABSTRACT. This article analyzes the expression of temporal deixis in electronic communication and its pragmatic features. As a result of the asynchronous nature of electronic communication, the study reveals aspects in which the interpretation of temporal deictic units differs from that in conventional speech. The article examines such manifestations of temporal deixis in electronic communication as a shiftable deictic center, vague (diffuse) temporal deixis, and technological temporal deixis arising from time indicators automatically generated by the platform. The findings demonstrate that temporal deixis in electronic communication functions as a multidimensional, dynamic, and context-dependent pragmatic phenomenon.

Keywords: electronic communication, temporal deixis, deictic unit, deictic center, pragmatic features, asynchronous communication, indefinite temporal deixis, diffuse deixis, technological temporal deixis, deictic delay, temporal interpretation, Telegram.

Elektron kommunikatsiya zamonaviy muloqotning asosiy manbayiga aylanib, til birliklarining ifodalanishi, interpretatsiyasi va ta’sirchanlik xususiyatlarini keskin o‘zgartirdi. Shu jumladan, zamon kategoriyasi va uning tildagi ifoda imkoniyatlaridan biri bo‘lgan zamon deyksisi ham yangi pragmatik yuklamalar bilan boyidi. Xususan, Telegram, WhatsApp, Instagram Direct, elektron pochta kabi platformalarda sodir bo‘ladigan asinxron muloqot

sharoitida zamon deyksisi faqatgina leksik-zamon ifodasi emas, balki muloqotning dinamikasi, munosabatlar tezligi va etiket strategiyalari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, zamon deyksisi deyktik kategoriya sifatida nutqiy aktning yuz berish paytiga nisbatan ifodalanadi. U an’anaviy tilshunoslikda o‘tgan, hozir va kelajak kabi muvozanat nuqtalarida baholanadi. Y.D.Apresyan deyksisni “egosentrik tizim” deb atab, “hozir”, “shu paytda”, “ertaga”, “keyin”, “bugun” kabi birliklarni so‘zlovchi nuqtayi nazaridan belgilanadigan, faol ishora vositalari sifatida ta’riflaydi. Biroq elektron muloqotda zamon deyksisi o‘zgaruvchan mohiyat kasb etadi. Bunda zamon deyksisi to‘g‘ridan to‘g‘ri real vaqt bilan emas, balki xabar yozilgan, yuborilgan va qabul qilingan vaqtlar o‘rtasidagi intervallar bilan belgilanadi. Masalan, telegram orqali *14:05*da jo‘natilgan *“Men hozir chiqdim”* xabarining qabul qilingan vaqti *14:17* bo‘lishi mumkin. Adresat uchun “hozir” tushunchasi voqea o‘tgan zamon, yanayam aniqrog‘i 14:05da sodir bo‘lgan vaqtga ishora qiladi. Bu holatda deyksisning interpretatsiyasi kontekstga, muloqot jarayonidagi kechikishga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Demak, elektron muloqotda zamon deyksisi faqat nutq subyektlarining joylashuviga emas, balki ularning vaqtdagi mavqelariga ham bog‘liq holda interpretatsiya qilinadi [8.21].

Ko‘rinadiki, elektron muloqotda zamon deyksisi o‘zining odatiy nutqdagi “hozir” nuqtasini yo‘qotadi va bir nechta deyktik nuqtalarga ega bo‘ladi. Buni “ko‘chma deyktik markaz” deb atash mumkin. Bu esa deyksisning relyativ xususiyatini ko‘rsatadi. Mazkur hollarda “xabar yuboruvchi hoziri” va “qabul qiluvchi hoziri”ni farqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Ya’ni, elektron muloqotda har ikki ishtirokchining “hozir” tushunchasi alohida vaqt nuqtasiga ega. Masalan:

14:05 – Adresant: “Men hozir chiqdim”

14:17 – Adresat: “Hozir chiqdingmi?”

Bu yerda tinglovchi “hozir” degani bilan o‘zining qabul qilish paytini nazarda tutadi, xabar yuboruvchi esa jo‘nash paytini. Bu vaqt relyativligi elektron muloqotda zamon deyksisining matn qurshovidagi interpretatsiyaga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Elektron muloqotda zamon deyksisining yana bir o‘ziga xos ko‘rinishi aniq vaqt chegarasiga ega bo‘lmagan, umumiy va subyektiv xarakterdagi zamon deyktik birliklar orqali ifodalanishidir. Bunday deyktik birliklarga “*hozir*”, “*keyin*”, “*keyinroq*”, “*birozdan so‘ng*”, “*hozir emas*”, “*keyin yozaman*” kabi ifodalar kiradi. Ushbu birliklar an’anaviy nutqda ham mavjud bo‘lsa-da, elektron muloqot muhitida ularning ma’nosi yanada kengayib, aniq vaqt koordinatasidan uzoqlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Elektron muloqotda mazkur ifodalar ko‘p hollarda aniq soat yoki sanaga nisbatan emas, balki so‘zlovchining subyektiv nutqiy rejasi, ichki tayyorgarlik holati yoki kommunikativ ustuvorliklariga bog‘liq holda qo‘llaniladi. Masalan, “*Keyin yozaman*” yoki “*Birozdan so‘ng javob beraman*” kabi xabarlarda “keyin” yoki “birozdan so‘ng” ifodalari qancha vaqt o‘tishiga ishora qilayotgani noaniq bo‘lib qoladi: bu bir necha daqiqa ham, bir necha soat yoki hatto keyingi kun ham bo‘lishi mumkin. Demak, bunday zamon deyktiklari aniq vaqt nuqtasiga emas, balki so‘zlovchining kommunikativ niyatiga tayanadi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu turdagi zamon deyktik birliklarni **“noaniq (diffuz) zamon deyksisi”** deb atash maqsadga muvofiq. “Diffuz” atamasi bu yerda zamonning tarqoq,

chegaralanmagan va aniq koordinatalarga ega emasligini anglatadi. Noaniq zamon deyksisi elektron muloqotda konteksga kuchli bog‘liq bo‘lib, uning to‘g‘ri interpretatsiyasi adresatning kommunikativ tajribasi, vaziyatni anglash darajasi va muloqot jarayonidagi o‘zaro munosabatlarga tayanadi.

Bundan tashqari, noaniq zamon deyksisi elektron muloqotda kechiktirilgan pragmatik ma’noni ham ifodalaydi. Masalan, “*Hozir emas*” degan javob nafaqat vaqtga oid ma’lumotni, balki muloqotni vaqtincha to‘xtatish, mavjud vaziyatda muloqotga tayyor emaslik yoki ustuvor vazifalar mavjudligini bildiradi. Bu holda zamon deyksisi pragmatik ishora sifatida xizmat qilib, so‘zlovchining kommunikativ strategiyasini ochib beradi.

Shuningdek, telegram ilovasida vizual ko‘rsatkichlar (masalan, *“onlayn”, “oxirgi marta onlayn: 10 daqiqa avval”, yoki “hozir ko‘rildi”*) ham zamon deyksisining texnik kodlangan ifodasi sifatida amal qiladi. Bular lingvistik vosita emas, lekin ularning pragmatik ta’siri deyktik funksiyani bajaradi. Bu holat Y.D.Apresyan ta’riflagan egosentrik deyksisning texnik interpretatsiyasi sifatida qabul qilinishi mumkin [4.115].

Elektron muloqotda zamon deyksisining o‘ziga xos ifoda shakllaridan biri platforma tomonidan avtomatik ravishda yaratiladigan vaqt ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Bularga xabar ostida aks etuvchi sana (masalan, *12.05.2025*), aniq soat (*14:05*), shuningdek, “*bugun*”, “*kecha*”, “*1 soat oldin*”, “*10 daqiqa avval*” kabi nisbiy vaqt ko‘rsatkichlari kiradi. Mazkur vaqt birliklari nutq subyekti tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanmaydi, balki elektron platforma algoritmlari asosida avtomatik hisoblab chiqariladi. Shu bois ularni an’anaviy lisoniy zamon deyksisidan farqli ravishda *texnologik zamon deyksisi* deb atash mumkin.

Texnologik zamon deyksisi elektron matnda nutqiy aktning qachon amalga oshganini aniqlash, xabarlar ketma-ketligini belgilash va muloqotning dinamik tuzilishini ta’minlashda muhim pragmatik vazifani bajaradi. Masalan, Telegram messenjerida xabar matnidan keyin “*bugun 14:05*” yoki “*kecha 22:30*” kabi belgilarning ko‘rsatilishi adresatga zamonga oid aniq mo‘ljalni beradi. Bu holatda “bugun” yoki “kecha” so‘zlari so‘zlovchining nutqiy markaziga emas, balki xabar o‘qilayotgan vaqtga nisbatan platforma tomonidan avtomatik ravishda hisoblangan deyktik nuqtaga bog‘lanadi.

Ayniqsa, “*1 soat oldin*”, “*5 daqiqa avval*” kabi nisbiy vaqt ko‘rsatkichlari zamon deyksisining harakatchan va o‘zgaruvchan xususiyatini namoyon etadi. Masalan, xabar yuborilganidan keyin dastlab “*hozirgina*”, keyin esa “*1 daqiqa oldin*”, ma’lum vaqt o‘tgach “*1 soat oldin*” shaklida o‘zgarib borishi mumkin. Bu o‘zgarish nutq mazmuniga emas, balki vaqtning o‘tishiga bog‘liq bo‘lib, zamon deyksisining lingvistik emas, texnik tabiatga egaligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, elektron muloqotda zamon deyksisi faqat “hozir”, “kecha”, “ertaga” kabi lisoniy birliklar bilan cheklanib qolmaydi, balki platformaning texnik imkoniyatlari orqali amalga oshiriladigan avtomatik vaqt belgilari bilan ham to‘ldiriladi. Bu belgilar so‘zlovchining individual nutqiy irodasidan mustaqil holda ishlab chiqarilib, zamonni obyektivlashtirilgan, standartlashgan va barcha ishtirokchilar uchun bir xil tarzda anglanadigan deyktik koordinata sifatida taqdim etadi.

Demak, elektron muloqotda zamon deyksisi nafaqat lisoniy birliklar orqali, balki platforma tomonidan avtomatik ravishda generatsiya qilinadigan vaqt ko‘rsatkichlari orqali ham amalga oshadi. Bu holat zamon deyksisining elektron muhitda texnologik xususiyat kasb etishini, uning pragmatik funksiyalari esa kommunikatsiya samaradorligini ta’minlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, zamon deyktiklarining matn qurshovida faol interpretatsiya qilinishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, elektron forumdagi *“Men buni kecha yozganman”* degan ifodadagi *“kecha”* deyktik birligi, xabar qachon jo‘natilganiga qarab anglanadi. Agar bu post 3 kun oldin yozilgan bo‘lsa, unda “kecha” deyish so‘zlovchi yozgan paytga nisbatan belgilanib, o‘quvchi uchun “uch kun avval” zamon deyksisiga ishora qiladi. Bunday hollarda elektron muloqotda zamon deyksisi real vaqt emas, matndagi vujudga kelgan nutq markaziga bog‘liq holda ifodalanadi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, elektron muloqotda zamon deyksisini to‘liq anglash uchun quyidagi uch parametrning hamohangligi yoki farqi hisobga olinishi lozim:

1) xabarning yuborilish vaqti (xabar yuboruvchi vaziyati);

2) qabul qilinishi yoki o‘qilish vaqti (xabarni qabul qiluvchi vaziyati);

3) matnning ichidagi vaqt nuqtasi (kontekstdagi deyktik markaz).

Bu parametrlar orasidagi ixtilof elektron muloqotda “deyktik kechikish” yoki “intervalli ma’no uzilishi”ni yuzaga keltiradi. Shuning uchun elektron muloqotda zamon deyksisi an’anaviy nutq modellaridan farqli o‘laroq ko‘p o‘lchovli, o‘zgaruvchan va kontekstga bog‘liq ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu esa deyksis nazariyasini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy texnologiya bilan bog‘liq lingvistik xususiyatlarni keng qamrovda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoldorova Sh.A. Electronic Communication Genres And Their Linguistic Interpretation // European international journal of pedagogics, 5(10), 2025. –P. 49–52.
2. Xoldorova Sh.A. Elektron muloqotda shaxs deyksisining ifodalanishi // Qo‘qon DPI ilmiy xabarlari. – Qo‘qon, 2025, – №8. – B. 1872–1878. ISSN 978-9943-7182-7-2
3. Xoldorova Sh.A. Ijtimoiy tarmoq muloqotida verbal va noverbal vositalarning ifodalanishi // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xorazm, 2024. – №5/4. – B. 434–437.
4. Апресян Ю. Д. Избранные труды: в 2 т. Т. II: Интегральное описание языка и системная лексикография. – Москва: Языки русской культуры, 1995. – С. 115.
5. Белозерцев А.В. *Дейксис компьютерно-опосредованного дискурса*. // Вестник Башкирскогоуниверситета, 2017. №4. – С. 1111-1116.
6. Давлатова Р.Ҳ. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филол. фан. д-ри. – Тошкент, 2020. –208 б.
7. Талески А. Модели дейктического и коммуникативного поведения говорящего в виртуальной реальности: монография. – Москва: ФЛИНТА, 2024. – С. 180.
8. Успенский Б.А. *Дейксис и вторичный семиозис в языке*. // Вопросы языкознания. 2011. №2. – С. 21